

**TARJIMONLIK SOHASIDA TARJIMON DASTURLAR VA SUN'YIY INTELEKTNING O'RNI, ULARNING QIYOSIY TAHLILI****РОЛЬ ПРОГРАММ ПЕРЕВОДА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБЛАСТИ ПЕРЕВОДА: ИХ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ****THE ROLE OF TRANSLATION PROGRAMS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF TRANSLATION: THEIR COMPARATIVE ANALYSIS**

**Berdiqulova Mavluda Abdujabbor qizi**

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** So'nggi vaqtlardagi texnika-texnologiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida bir qancha sohalarda, xossatan tarjima sohasida avtomatlashtirilgan dasturlardan keng va unumli foydalanilmoqda. Tarjima uchun maxsus dasturlar va mashina tarjimalarning tarjima jarayonidagi samaradorlikning oshishiga xizmat qilishi dunyo tomonidan tan olinib, bu kabi vositalar yaqin kelajakda tarjimonlarga raqobatchi bo'lishi ham tahmin qilinmoqda. Maqolada quyida nomlari keltirilgan dasturlarning tarjima sifati, undagi xato va kamchiliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot ishi asli arab tilida bo'lgan matnni Google translate, Yandex translate, Prompt translate va sun'iy intellekt ChatGPT da tarjima qilish orqali ularning grammatik, uslubiy va mantiqiy jihatlari solishtirishga asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, sun'iy intellekt, mashinali tarjima, tarjimon ilovalari, tarjima sifati, Google translate, Yandex translate, ChatGPT, Prompt translate.

**Аннотация.** В результате недавнего развития технических и технологических средств автоматизированные программы широко и эффективно используются в различных областях, особенно в сфере перевода. Мир признал, что специальные программы для перевода и машинного перевода способствуют повышению эффективности процесса перевода, и ожидается, что в ближайшем будущем такие инструменты станут конкурентами переводчиков. В статье анализируется качество перевода, ошибки и недостатки перечисленных ниже программ. Исследование основано на сравнении грамматических, стилистических и логических аспектов оригинального арабского текста с его переводом с использованием Google Translate, Яндекс Переводчик, Prompt Translate и искусственного интеллекта ChatGPT.

**Ключевые слова:** перевод, искусственный интеллект, машинный перевод, приложения-переводчики, качество перевода, Google Translate, Yandex Translate, ChatGPT, Prompt Translate.

**KIRISH**

Globalashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan birga tarjimonlik sohasi ham tubdan o'zgarib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) va tarjimon dasturlarining rivojlanishi natijasida matnlarni avtomatik tarjima

qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu esa nafaqat tarjimonlarning ishini yengillashtirmoqda, balki tarjima sifatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda Google translate, Prompt translate, ChatGPT, Yandex translate kabi tarjima vositalari ommalashdi va har kuni millionlab foydalanuvchilar tomonidan qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, inson tarjimonlari tomonidan yaratilgan tarjimalar bilan bu dasturlarning natijalarini qiyoslash ehtiyoji ortib bormoqda. Tarjima jarayonida aniqlik, kontekstga moslik, grammatik jihatdan to'g'rilik kabi mezonlar sun'iy intellektdan foydalanishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada tarjimonlik sohasida sun'iy intellekt va tarjimon dasturlarining tutgan o'rni hamda ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi.

### ASOSIY QISM

Tanlangan matn:

مرحبا بكم أصدقائي، اسمي عادل، عمري عشرون عاما، وأنا من فرنسا من مدينة باريس، طولي مائة وسبعون سنتمرا، ووزني خمسة وسبعون كيلو.  
أسرتي تتكون من خمسة أفراد: أبي وأمِّي وأخي وأختي. أبي اسمه خالد وعمره خمسون عامًا، ويعمل مديرًا في شركة، وأمِّي اسمها فاطمة عمرها خمسة وأربعون عامًا، وهي ربة بيت. أخي الكبير اسمه محمود، عمره ثلاثة وعشرون عامًا وهو يعمل معلمًا، وأختي الصغيرة اسمها ساجدة، عمرها خمسة عشر عامًا، وتدرُس في الثانوية  
أنا أحبُّ أسرتي. ادرسُ في الجامعة في السنة الأولى، أذهبُ خمسة أيام في الأسبوع، وتعلمُ في الجامعة لغتين: هُما العربية والإنجليزية؛ لأنِّي أحبُّ تعلم اللغات، وأقرأ كثيرًا في المعجم حتى لا أنسى الكلمات التي أتعلمها، وأجلسُ كلَّ يومٍ ساعةً في مكتبة الجامعة لِقراءة الكتب، عطفتي يومان: الجمعة والسبت في يوم الجمعة أزور أقاربي، ويوم السبت أخرجُ مع أصدقائي إلى الحديقة.

**Google translate** – neyron tizimlarga asoslangan mukammal onlayntarjimon.

Interfeys sodda va yuzdan ortiq tillarga tarjimini qo'llab-quvvatlaydi. Lug'atlar va mavjud funksiyalar soniga ko'ra hozirgi kunga qadar eng funksional va ko'p qirrali xizmat sanaladi. Undan maqolalar, hujjatlar, veb-sahifalarni tarjima qilishda, shuningdek, PPT, PDF va boshqa fayl formatlarida foydalanish mumkin.

### Google translate tarjimasi:

Xush kelibsiz, do'stlarim. Mening ismim Adel. Men yigirma yoshdaman va men Fransiyaning Parij shahridanman. Bo'yim 170 santimetr, vaznim 75 kilogramm. Mening oilam besh kishidan iborat: otam, onam, akam va singlim. Otamning ismi Xolid, u ellik yoshda, bir kompaniyada menejer bo'lib ishlaydi. Onamning ismi Fotima, yoshi qirq beshda, uy bekasi. Katta akam Mahmud 23 yoshda, o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Kichik singlim Sajida 15 yoshda, maktab o'quvchisi. Men oilamni yaxshi ko'raman. Haftada besh kun universitetga boraman. Men ikki tilni o'rganyapman: arab va ingliz. Men til o'rganishni yaxshi ko'rganim uchun, o'rgangan so'zlarni unutmaslik uchun lug'atni ko'p o'qiyman va har kuni universitet kutubxonasida bir soat kitob o'qish uchun o'tiraman. Menda ikki dam olish kuni bor: juma va shanba. Juma kuni men qarindoshlarimnikiga boraman, shanba kuni esa do'stlarim bilan bog'ga chiqaman.

### Tarjimadagi xatolar:

- “الأولى السنة في الجامعة في ادرسُ.” jumlasini “men universitetning birinchi kurs talabasiman” deb tarjima qilingan. Bu tarjima mantiqiy va uslubiy

jihatdan noto'g'ri bo'lmasada, "men universitetda birinchi kursda o'qiyman" deya tarjima qilinsa grammatik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

- "اللُّغَاتِ تَعَلَّمَ أَحِبُّ لَأْتِي" ushbu gapni Google translate "men til o'rganishni yaxshi ko'rganim uchun" deb tarjima qilgan. To'g'ri tarjima esa quyidagidek bo'lishi kerak "til o'rganishni yaxshi ko'raman, shuning uchun"

- "الكتب لِقَرَاءَةِ الْجَامِعَةِ مَكْتَبَةٍ فِي سَاعَةِ يَوْمٍ كُلِّ وَأَجْلِسُ" iborasining "kitob o'qish uchun o'tiraman" tarjimasi "universitet kutubxonasida har kuni bir soat davomida kitob o'qiyman" deb tarjima qilinganda badiiy jihatdan soddaroq va aniqroq bo'ladi.

- "الحديقة إلى أصدقائي مع أخرجُ" jumlasini "bog'ga chiqaman" deb emas, "do'stlarim bilan bog'ga boraman" deb tarjima qilinsa, arabchaga yanada mos keladi.

**Prompt translator**- bu neyron tarmoq yondashuvi va qoidalarga asoslangan tarjima tizimi, ya'ni Rule-Based Translation (RBMT)ni birlashtirgan yangi gibridd texnologiya bo'lib, asosan, Yevropa va Osiyo tillari uchun avtomatik tarjima xizmatlarini taqdim etadi. Tizim 22 ta tilni qo'llab-quvvatlaydi.

#### **Prompt translator tarjimasi:**

Do'stlaringizga xush kelibsiz, mening ismim Adel, men yigirma yoshdaman, men Parij shahridan Fransiyadanman, bo'yim bir yuz etmish santimetr, vaznim etmish besh kilogramm. Mening oilam besh a'zodan iborat: dadam, onam, akam va singlim. Otamning ismi Xolid, u ellik yoshda, kompaniyada menejer bo'lib ishlaydi, onamning ismi Fotima, u qirq besh yoshda, u uy bekasi. Mening akam Mahmud, u yigirma uch yoshda va u o'qituvchi bo'lib ishlaydi, mening singlim Sajida, u o'n besh yoshda va u o'rta maktabda o'qiydi

Men oilamni sevaman. Men birinchi yilda universitetda o'qiyman, haftada besh kun boraman va universitetda ikki tilni o'rganaman: Arab va ingliz; chunki men tillarni o'rganishni yaxshi ko'raman va o'rgangan so'zlarimni unutmaslik uchun leksikonda ko'p o'qiyman va har kuni o'tiraman. universitet kutubxonasida kitob o'qish uchun bir soat, mening ta'lim ikki kun: juma va shanba juma kuni qarindoshlarimga tashrif buyuraman va shanba kuni do'stlarim bilan bog'ga chiqaman.

#### **Tarjimadagi xatolar:**

- "أصدقائي بكم مرحبا" iborasi "Do'stlaringizga xush kelibsiz" deya grammatik va mantiqiy jihatdan noto'g'ri tarjima qilingan. Amalda esa "xush kelibsiz, do'stlarim" bo'lishi kerak.

- "باريس مَدِينَةٌ مِنْ فَرَنْسَا مِنْ وَأَنَا" so'z birikmasi "men Parij shahridan Fransiyadanman" deb so'zma-so'z tarjima qilingan va takrorga yo'l qo'yilgan. To'g'ri tarjima: "men Fransiyaning Parij shahridanman"

- "bo'yim bir yuz etmish santimetr" iborasidagi "etmish" so'zi imloviy xato hisoblanadi.

- "Men birinchi yilda universitetda o'qiyman" uslubiy va mantiqiy jihatdan xatolikka yo'l qo'yilgan.

- "leksikonda ko'p o'qiyman" jumlasini "lug'atlarni ko'p o'qiyman" deb tarjima qilinsa to'g'ri bo'ladi.

- “har kuni o‘tiraman. universitet kutubxonasida kitob o‘qish uchun bir soat” tarjimasida grammatik, mantiqiy va punktuatsion xatoliklarni ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri tarjima quyidagicha: “universitet kutubxonasida har kuni bir soat davomida kitob o‘qiyman”
- “mening ta‘tilim ikki kun”, “ta‘til” odatda uzoq muddatli dam olish. Matnda dam olish kunlari nazarda tutilgan.

**Yandex translator** – Statistik va neyron tarjima tizimlarining aralashuvidan hosil bo‘lgan gibrid tarjima modeliga asoslanuvchi yuqori sifatli onlayn tarjimon tizim. 90 dan ortiq til juftliklari orasida tarjimani amalga oshiradi va kiritish tilini avtomatik ravishda o‘zi aniqlaydi. Tarjima bazasi statistik yondashuvga asosan o‘z-o‘zini rivojlantirib boradi.

#### **Yandex translator tarjimasi:**

Do‘stlarimga xush kelibsiz, mening ismim Adel, men yigirma yoshdaman, men Parij shahridan Fransiyadanman, bo‘yim bir yuz etmish santimetr, vaznim etmish besh kilogramm. Mening oilam besh a‘zodan iborat: dadam, onam, akam va singlim. Otamning ismi Xolid, u ellik yoshda, kompaniyada menejer bo‘lib ishlaydi, onamning ismi Fotima, u qirq besh yoshda, u uy bekasi. Mening akam Mahmud, u yigirma uch yoshda va u o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi, mening singlim Sajida, u o‘n besh yoshda va u o‘rta maktabda o‘qiydi

Men oilamni sevaman . Men birinchi yilda universitetda o‘qiyman, haftada besh kun boraman va universitetda ikki tilni o‘rganaman: Arab va ingliz; chunki men tillarni o‘rganishni yaxshi ko‘raman va o‘rgangan so‘zlarimni unutmash uchun leksikonda ko‘p o‘qiyman va har kuni o‘tiraman. universitet kutubxonasida kitob o‘qish uchun bir soat, mening ta‘tilim ikki kun: juma va shanba juma kuni qarindoshlarimga tashrif buyuraman va shanba kuni do‘stlarim bilan bog‘ga chiqaman.

#### **Tarjimadagi xatolar:**

- Yandex translate tarjimasida ham xuddi Prompt dasturi yo‘l qo‘ygan xatoliklar mavjud. Masalan, “do‘stlarimga xush kelibsiz” deb grammatik va mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri tarjima qilingan.
- “men Parij shahridan Fransiyadanman” deb so‘zma-so‘z tarjima qilingan.
- “Men birinchi yilda universitetda o‘qiyman” so‘z tartibi chalkash berilgan.
- “leksikonda ko‘p o‘qiyman” jumlasida ham yuqoridagi xato takrorlangan.

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarjima sohasiga ham katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Dastlab avtomatik tarjima dasturlari faqat sodd matnlarni taxminiy tarzda tarjima qilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning aniqligi, uslubiy mosligi va kontekstni tushunish darajasi sezilarli darajada oshdi.

#### **Sun‘iy intellekt – ChatGPT tarjimasi:**

Salom, do‘stlarim! Mening ismim Adel. Men yigirma yoshdaman. Men Fransiyaning Parij shahridaman. Bo‘yum 170 santimetr, vaznim 75 kilogramm. Mening oilam besh kishidan iborat: otam, onam, akam, singlim va men. Otamning ismi Xolid, u ellik yoshda, kompaniyada menejer bo‘lib ishlaydi. Onam Fotima, u qirq besh yoshda va uy bekasi. Akam Mahmud yigirma uch yoshda, o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Singlim Sajida o‘n besh yoshda, yuqori sinfda o‘qiydi.

Men oilamni yaxshi ko'raman. Men universitetda birinchi kursda o'qiyman. Haftada besh kun darsga boraman va Arab hamda Ingliz tillarini o'rganaman. Men tillarni o'rganishni yaxshi ko'raman, shuning uchun o'rgangan so'zlarimni unutmash uchun lug'atda ko'p o'qiyman. Har kuni universitet kutubxonasida bir soat davomida kitob o'qiyman. Mening dam olish kunlarim — juma va shanba. Juma kuni qarindoshlaringa tashrif buyuraman, shanba kuni esa do'stlarim bilan bog'ga boraman.

#### **Tarjimadagi xatolar:**

- “Bo'yum 170 santimetr” iborasida imloviy xatolik mavjud.
- “Arab hamda Ingliz tillarini o'rganaman” tarjimasidagi arab hamda ingliz tillari kichik harf bilan yozilishi kerak.

#### **NATIJALAR**

**Google translator** ilovasi umumiy mazmunni tushunarli qilib tarjima qilgan bo'lsa-da, unda grammatik xatolar, uslubiy kamchiliklar va mantiqiy xatolar mavjud. Ayniqsa, fe'llarning zamonlari va jumlar o'rtasidagi bog'lanishlar noto'g'ri berilgan. Bu tarjima so'zma-so'z uslubga yaqin, lekin to'g'ri va tabiiy tarjima emas. Shuning uchun tarjimani inson muharriri tekshirib, tahrirlash kerak.

#### Umumiy baho 7/10.

**Prompt translator** ilovasida ba'zi joylarda gaplar ortiqcha so'zma-so'z tarjima qilingan. Imloviy, grammatik, uslubiy va mantiqiy jihatdan xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Badiiy jihatdan to'g'ri tarjima emas va inson tarjimon tomonidan tekshirilishi kerak.

#### Umumiy baho 4/10

**Yandex translator** dasturida esa grammatika jihatidan xatolar ko'p. Uslub tabiiy emas, ba'zi gaplar tushunarsiz yoki ortiqcha. Ba'zi so'zlar noto'g'ri ishlatilgan ("leksikonda", "birinchi yilda" va h.k.). Prompt translate qilgan xatolarni takrorlagan. Asosiy mazmun saqlangan.

#### Umumiy baho 4/10

**Sun'iy intellekt – ChatGPT** tarjimasi oddiy, tushunarli va mos tilda bajarilgan. Fe'llar zamonlari, birlik-ko'plik, egalik shakllari va boshqa grammatik qurilmalar tarjimada to'g'ri qo'llangan. Matn sodda va grammatik xatolarsiz tuzilgan. U o'quvchi tomonidan oson qabul qilinadi va asl matnни to'liq ifodalaydi. Bunday tarjimon chatlardan ta'lim yoki tanishtiruv maqsadlarida bimalol foydalanilish mumkin.

#### Umumiy baho 9/10

#### **MUHOKAMA.**

Ushbu tadqiqot davomida bir nechta mashhur tarjima tizimlari tahlil qilindi va ularning natijalari o'zaro taqqoslandi. Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori sifatli tarjimani ChatGPT dasturi taqdim etdi. Bu tizim tarjimada nafaqat grammatik to'g'rilikni, balki mazmunning mantiqiy izchilligini ham to'liq saqlab qolgan. Google translator nisbatan yaxshi natija ko'rsatgan bo'lsa-da, ba'zi iboralarni to'g'ri talqin qilmaslik holatlari kuzatildi. Yandex translator va Prompt translator esa eng past sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ldi; ayniqsa Prompt translator ko'plab so'z va iboralarni

noto'g'ri tarjima qilgani aniqlandi. Shunday qilib, ChatGPT eng samarali va ishonchli tarjima vositasi sifatida baholandi.

	<b>Tarjimon dasturlar</b>	<b>Leksik jihatdan</b>	<b>Grammatik jihatdan</b>	<b>Uslubiy jihatdan</b>	<b>Mantiqiy jihatdan</b>	<b>Umumiy baho</b>
<b>1</b>	Google translate	8	8	7	8	7.75
<b>2</b>	Prompt translate	4	4	4	4	4
<b>3</b>	Yandex translate	6	5	5	5	5.25
<b>4</b>	ChatGPT	10	10	9	10	9.75

### **XULOSA**

Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar sifatli va tabiiy tarjima kerak bo'lsa, ayni paytda eng yaxshi tanlov bu – Chat GPT. Ammo tarjima jarayonida ushbu tarjimonda tarjimaning dastlabki maketini yasab, so'ng uni malakali tarjimon tekshirib chiqqandan so'nggina tarjimoni muvaffaqiyatli deb bilish mumkin.

Xulosa o'laroq hozircha sun'iy intellektlar inson tarjimonlar o'rmini to'liq bosa olmaydi, lekin tarjima jarayonida yordamchi vosita sifatida samarali qo'llanilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jo'raqo'ziyeva, Z. Q. q. (2024). Tarjimashunoslikda kompyuter dasturlari. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjimonlik fakulteti. 188–191-betlar.
2. Qodirova M, Hamroyeva Sh. (2023) Zamonaviy dunyoda mashina tarjimasi tadriji: tahlillar va natijalar O'zbekiston til va madaniyat, komputer lingvistikasi. 22-40-betlar
3. Itolmasova Sh. (2025) Sun'iy intellekt – tarjimonlar uchun yangi imkoniyatlar davri Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti. 24-26-betlar.